

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasining № 16 -sonli yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma

2025 yil 29-mart

Sariosiyo tumani

Ishtirok etuvchilar: 11 nafar pedagoglar: kafedra mudiri p.f.f.d., PhD dotsent Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna, p.f.f.n. (PhD) katta o‘qituvchi Maxmudov Shokir Kamolovich, O‘rozov Faxriddin Isakovich, Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich, Saidova Parvina Mirzo qizi, Ulug‘bek Shomurodov Melikboboyevich, Qulmamatova Fazilat Qarshiyevna, Dusyarova Laylo, Rahmonova Nilufar.

Kun tartibi:

Professor-o‘qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o‘tkazish va o‘zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to‘g‘risida.

Saidova Parvina Mirzo qizining ochiq darsi muhokamasi mas‘ul: p.f.f.d., PhD dotsent Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna

1. ESHITILDI:

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs – munozara:

P.M.Saidovanning axboroti “Mutaxassislikka kirish” fanidan “Bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish” mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

Kafedra yig‘ilish raisiga so‘z berildi, p.f.f.d., PhD dotsent Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna hurmatli professor-o‘qituvchilar P.M.Saidovanning ochiq darsi “Mutaxassislikka kirish” fanidan “Bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish” mavzusida Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs 101-P-2024 guruhlariga 27.03.2025 yil sanasida o‘tkazildi. Darsda bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar berildi, jamoaviy fikrlar yuritildi, kerakli tavsiyalar keltirib o‘tildi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quv rejalari va dasturlariga amal qilgan holda darsni tashkil qildi. Dars ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to‘liq berilgan. Dars davomida o‘qituvchi tezkor savollar yordamida me‘yorida foydalanib bordi. Talabalarni ya‘ni bo‘lg‘usi pedagoglar sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishning samarali yo‘llariga e‘tibor qaratishi lozim ekanligi ta‘kidlandi. Real pozitsiyalar orqali ularda qo‘llay oladigan vaziyatlari tinglandi. Talabalarga kelgusida bo‘lajak pedagog vakillari bo‘lishida asosiy ahamiyat qaratishi lozim bo‘lgan tavsiyalar berib o‘tildi. Pedagog o‘quv materialini tushuntirishda har xil vositalar bilan uning talabalar tomonidan idrok etilishiga, anglashiga, esda saqlab qolishiga erishdi. Dars jarayonida talabalarga “Peer Teaching” metodi yordamida savollar berdi va savollarga javob oldi, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Design thinking” metodi, “Mind Map” “Case study” interaktiv metodi shuningdek, mavzuga doir keyslardan ham dars

davomida unumli foydalanildi. Shuningdek, "Do'stinga maktub" amaliy mashqi ham olindi. Bunda talabalar maktub yozib berishdi.

So'z kafedramiz a'zosi katta o'qituvchisi T.Yo'ldoshevga berildi: darsning sifati har bir dars komponentlarining to'g'ri aniqlanganligi ularning ratsional uyg'unlashuviga bog'liq. Shunday ekan, bugungi P.M.Saidovanning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman:

- a) darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etdi.
- b) darsda maqsadni aniq ta'limiy va tarbiyaviy masalaga qaratdi.
- c) o'quv materiallarini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metodlardan foydalandi.
- d) talabalar jamoasi aniq bir faoliyatga jalb etildi.
- e) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan. Dars jarayonida bahs-munozara usullaridan samarali foydalanildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanildi. Darsda talabalar faol ishtirok etdilar. Dars qiziqarli tashkil etildi.

Bugungi ochiq darsni P.M.Saidova pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.

Pedagogika fanlari falsafa doktori PhD dotsent SH.K.Mahmudov "Mutaxassislikka kirish" fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, ma'ruza matnlari, mavzu bo'yicha taqdimot mavjudligini ta'kidlaydi. Mavzu qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin, mustaqil fikrlarini bayon qilib berdilar. O'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida interfaol metodlardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mashg'ulotga jalb qila oldi. Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi, talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi. Ochiq dars mavzusi aniq, ko'rgazmali va tushunarli tarzda yoritilgan. Talabaning bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'li bilan ular nutqining to'g'riligi va sofligiga mas'uliyat bilan qarash lozim, deb o'ylayman.

Kamchiliklari:

1. Talaba bilan ko'proq aloqa munosabatlarini ko'paytirish lozim.
2. Uyg'a mustaqil ish berishda topshiriqlar hajmini ko'proq berish lozim.

QAROR QILADI:

1. P.M.Saidovanning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda hozirgi ta'lim metodlaridan, axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.
2. P.M.Saidovanning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy baholansin.

Kafedra mudiri:

Kotib:

p.f.f.d., PhD dots., D.M.Boboqulova
M.Ko'chkinova



